

MAVZU: SURXON VOHASIDAGI KUSHON PODSHOLIGI DAVRIGA OID AYRITOM FRIZI MISOLIDA

Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti 4-kurs 403-guruh talabasi

Toshmamatov Azizbek Tohir o'g'li

Termiz Arxeologiya muzeyi Ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kushon podsholigiga oid Ayrитом Frizi O'rta Osiyodagi qadimgi tarixiy yodgorliklardan biri bo'lib, u eng qadimiyligi bo'lган arxeologik topilma hisoblanadi. Ayrитom joylashuvi va undagi topilmalar orqali, bu hududda qadimgi zamonlarda qanday madaniyat va sivilizatsiyalar yashaganligini o'rganish ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ayrитom Frizi, tarixiy yodgorliklar, geografik joylashuvi, Amudaryo vodiysi, arxeologik ahamiyati, san'at va madaniyat, ashyolar va qurilish qoldiqlari.

Geografik joylashuvi: Ayrитom Frizi Amudaryo vodiysida joylashgan bo'lib, hozirgi Tojikiston hududiga to'g'ri keladi. Bu hudud O'rta Osiyoning tarixiy va madaniy markazlaridan biri bo'lган. Ayrитomning geografik joylashuvi uni savdo yo'llari kesishgan joyda bo'lishiga olib kelgan, bu esa hududning rivojlanishi va gullab-yashnashiga sabab bo'lган.

Arxeologik ahamiyati: Ayrитom Frizi arxeologik ahamiyati bilan ajralib turadi. Bu yerdan topilgan ashyolar va qurilish qoldiqlari qadimgi O'rta Osiyo tarixinining muhim davrlariga oid ma'lumotlarni beradi. Arxeologlar bu yerdan turli xil keramika buyumlari, tangalar, me'morchilik qoldiqlari va boshqa turdagidan moddiy madaniyat namunalarini topganlar. Bu topilmalar o'sha davrning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

San'at va madaniyat: Ayrитom Frizi san'at va madaniyat sohasida ham muhim o'rinni tutadi. Bu yerdan topilgan san'at asarlari, ayniqsa, devoriy rasmlar va haykaltaroshlik namunalari, qadimgi san'atning yuqori darajasini ko'rsatadi. Ularning uslubi va mavzulari O'rta Osiyo xalqlarining madaniy o'ziga xosliklarini va ularning qo'shni xalqlar bilan bo'lган madaniy aloqalarini aks ettiradi.¹

Kushonlar davlatida davlatni satrapliklarga bo'lib idora qilish tartibi sakdab qoltingan. Kushon podsholari katta va kuchli qo'shinga tayanib, mamlakat chegaralarini kengaytirib borganlar. Olib borilgan istilochilik yurishlari natijasida

¹ Ayrитom – Vikipediya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayrитom>

Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyoning kattagina qismi Kushonlar davlatiga bo‘ysundirilgan. Kushonlar imperiyasiga xos moddiy ma’naviyat asoslari keng rivojlanishi tufayli rasmiy, diniy, ishlab chiqarish, turar joy, sun’iy sutorish, mudofaa, tijoratga taalluqli qurilish binolari bilan uyg‘unlashgan holda qurilgan. Keyingi paytlarda Kushonlar davlatining shimoliy chegaralari masalasi ham ma’lum darajada ko‘rib chiqildi.²

Ushbu masala ilk bor 1938-yili S.P. Tolstov tomonidan ko‘tarilgan edi. Uning fikricha, So‘g‘diyona Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida kushonlar saltanati tarkibiga qo‘shib olingan. Keyinchalik u Xorazmda topilgan tangalarga asoslanib, Xorazmni ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Kushonlar davlatining shimoliy hududlari to‘g‘risidagi S.P. Tolstov xulosalari keyingi tadqiqotchilar uchun uzoq vaqt ilmiy asos bo‘lib xizmat qiddi, natijada qator boshqa o‘lkalar ham ushbu saltanat tarkibiga kiritila boshlandi.³

Jumladan, 1950-yilga kelib K.V.Trever Choch viloyatini ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Tyanshan va Pomir-Olttoyda olib borilgan arxeologik qazishmalarning yakunlariga asoslangan

Surxondaryo vohasida joylashgan Ayrtom yodgorligi Kushon podsholigi davriga oid muhim arxeologik joylardan biridir. Bu yodgorlik Kushon davrining madaniy va diniy hayotini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Ajoyib suratlar va haykallar: Ayrtom yodgorligida Kushon davri san'atining eng yaxshi namunalaridan biri sifatida qaraladigan suratlar va haykallar topilgan. Ushbu suratlar va haykallar orqali Kushon davrida san'at va madaniyatning qanchalik rivojlanganini ko'rish mumkin.

Diniy marosimlar: Ayrtom yodgorligi ko‘pincha diniy marosimlar uchun foydalanilgan. Bu joyda topilgan arxeologik topilmalar orqali o’sha davrda amalda bo’lgan diniy e’tiqodlar va urf-odatlar haqida ma’lumot olish mumkin.

Savdo yo’llari: Ayratom joylashgan hudud o’sha davrda muhim savdo yo‘llarining chorrahasida bo‘lgan. Bu joyning iqtisodiy va siyosiy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lganligini ko’rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Ayrtom yodgorligida ko‘plab muhim topilmalar aniqlangan. Ushbu topilmalar orasida keramika buyumlari, tangalar, haykallar va boshqa turdagи madaniy artefaktlar bor.

² Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. –T., “O‘qituvchi”, 2003-yil, 324 bet.

³ Tursunov S.N va boshqalar. Surxondaryo tarixi. -T.: Sharq, 2004.

Ayrtom yodgorligi, Kushon podsholigi davrini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lib, uning o'rganilishi orqali bu davrning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida yanada to'liqroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Bu davrda Termiz shahrining-maydoni 350 hektar bo'lib, Dunyotepa va Chingiztepa xarobalari o'rniда joylashgan. Chingiztepa va Qoratepa oralig'ida Amudaryoga qurilgan chig'iriqtтар yordamida shahar markaziga ichimlik suvi chiqarilgan. Suv chiqarilgach, qoratepa ibodatxonasida maxsus hovuzlar yordamida suv tindirilib, keyin shahar tashqi devorining shimoliy tomoni bo'yab qurilgan ariqcha orqali shaharga taqsimlangan. Milodiy II asrda podsho Kanishka qoratepa yodgorligi o'rniда Budda ibodatxonasini qurdiradi. Mamlakatda qishloq jamoalari ancha kengayadi. Mavjud yodgorliklar bu to'g'rida juda ko'p tarixiy ma'lumotlar beradi. 1932-yilda Amudaryoda «Oktabryonok» katerida ketayotgan chegarachilar Ayrитомга yaqin joyda oqtosh ko'rganlar, bu nog'orachi tasviri uyib solingan tosh friz ekanligi aniqlandi. 1933-yilda bu topilmaga professor M. Ye. Masson boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya yuborildi. Termiz shahridan 18 km sharkda balandligi 22,5 metr, qalinligi 1,5 metrli istehkom devorlari bilan o'ralgan III asrlarga oid budda ibodatxonasi topildi. U ohaktoshdan ishlangan ajoyib friz bilan bezatilgan edi. Ayiqtonon barglar orasida beshta sozanda surati o'yib ishlangan. Nog'orachi bilan rangbarang kiyimlardagi sozanda ayollar surati ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu sozandalardan biri ud, yana bittasi arfa chalayapti, frizda qo'llarida gulchambaraklar hamda chiroyli idishlar ko'tarib ketayotgan qizlar tasvirlangan. Ibodatxonada buddaning haykali va boshqa ibodatxona qismlari qatorida toshdan yasalgan odam haykallari topilgan. Ular musiqa chaluvchilar, hadyalar tashuvchi erkak va ayollarning xaykallari bo'lib, ibodatxonaning tashqi tomoni karnizi shu haykallar bilan bezatilgan. Haykallarning qiyofasi va kiyimylarida Hindistonga xos belgilar yorqin bo'lib, bu ajoyib san'at yodgorligi ikki mamlakat o'rtaSidagi munosabatlar samarasidir. 1936-yilga kelib M.Ye. Masson boshchiligidagi tashkil etilgan TAKE kushon davri tarixi va madaniyati masalalarini izchil tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib quydi. Xususan, Termiz shahrining rivojlanish pallasi kushonlar davriga to'g'ri kelishi va uning tarixiy topografiyasi aniqlandi. TAKE ishlari Ayrитом, Chingiztepa va qoratepada olib borildi hamda tadqiqotlarda M. I. Vyazmitina, G.A.Pugachenkova, B.B.Piotrovskiy singari olimlar ishtirok qildilar. Ayrитом peshtokdarining topilishi Shimoliy Baqtriyaning antik davr musiqa san'ati haqida ham so'z yuritish hamda ularni Afg'oniston, Hindiston va Sharqiy Turkiston

haykaltaroshligida uchraydigan shularga aynan o‘xshash musiqa asboblari bilan qiyoslash imkonini berdi⁴.

Xulosa

Ayritom Frizi O‘rta Osiyo tarixining boy madaniy va arxeologik merosini o‘rganish uchun muhim manbadir. U yerdan topilgan topilmalar va ular asosida olib borilgan tadqiqotlar bizga qadimgi zamonlardagi hayot, madaniyat va sivilizatsiyalar haqida qimmatli bilimlarni taqdim etadi. Bu yodgorlikni yanada chuqr o‘rganish va uni asrash, kelajak avlodlar uchun muhimdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ayritom – Vikipediya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayritom>
2. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. –T., “O‘qituvchi”, 2003-yil, 324 bet.
3. Tursunov S.N va boshqalar. Surxondaryo tarixi. -T.: Sharq, 2004.
4. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Sharq-T Tursunov S.N., Surxondaryo tarixini o‘rganish., T., Abdulla Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1999.

⁴ Mustaqil O‘zbekiston tarixi. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Sharq-T Tursunov S.N., Surxondaryo tarixini o‘rganish., T., Abdulla Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1999.